



BAYONNING BUGUNGI KUNDA TIL VA TA'LIMDAGI AHAMIYATI

O'rinbayeva Zarifa Anvarjon qizi

Namangan tuman 20-sonli maktab ona tili va adabiyoti o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bayonning bugungi kunda til va ta'lim jarayonidagi o'рни hamda ahamiyati tahlil qilinadi. Bayonning nutqni shakllantirish, fikrni izchil va mantiqiy ifodalashdagi roli, shuningdek, o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq kompetensiyalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, bayon orqali til birliklarini ongli o'zlashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль и значение изложения в современном языковом и образовательном процессе. Освещается значение изложения в формировании речи, умении последовательно и логично выражать мысли, а также его педагогические возможности в развитии письменной и устной речевой компетенции учащихся. В статье, исходя из требований современного образования, особое внимание уделяется вопросам осознанного усвоения языковых единиц посредством изложения, а также развитию критического и творческого мышления.*

Kalit so'zlar: *bayon, ona tili, yozma nutq, og'zaki nutq, nutqiy kompetensiya, ijodiy fikrlash, ijodiy bayon, nutq madaniyati.*

Ключевые слова: *изложение, родной язык, письменная речь, устная речь, речевая компетенция, творческое мышление, творческое изложение, культура речи.*

KIRISH

Til zarur ijtimoiy hodisa sifatida inson ongida mavjud. Shuning uchun ayrim jihatlari bilan qulay va oson bo'lsa, ayrim jihatlari bilan qiyin va murakkabdir. O'rta umumta'lim maktablarida davlat tili hisoblangan o'zbek tilining o'qitilishi juda katta ijtimoiy, iqtisodiy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga molik masalalardan biridir. O'z ona tilini har tomonlama bilgan, uning go'zal, boy, rang-barang imkoniyatlaridan bimalol foydalana oladigan shaxsgina jamiyat talablariga javob bera oladi.

O'rta umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad – bolalarga ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Fanda yozma ijodiy ish ustida ishlash usullari mavjud va bu ish ona tili mashg'ulotlarida ikki yo'nalishda amalga oshiriladi. Birinchisi, til



hodisalarini o'rganish jarayonida, ikkinchisi, ijodiy yozma ish ustida ishlash uchun ajratilgan maxsus soatlarda.

Bayon — bu o'qituvchi tomonidan o'qib berilgan, o'quvchilar tomonidan o'qilgan yoki tinglangan matnni yozma yoki og'zaki shaklda qayta ifodalash mashqidir. Bayon o'quvchilarning lug'at boyligini, nutqiy malakasini, mustaqil fikrlash qobiliyatini, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bayon matn mazmunini, shuningdek, uning badiiy-uslubiy xususiyatlarini yetkazish, qabul qilish, fahmlashga qaratilgan yozma ish turi bo'lib, arabcha "aniqlik", "ravshanlik", "tavsiflash", "ifodalash" ma'nosidagi so'z bo'lib, o'qib yoki aytib berilgan biror matn asosida yozib chiqilgan ish; yozma ish (o'quvchilar bilimini baholashning yozma shakllaridan biri)ni ifoda etadi. Bayon nazoratning yozma turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini izchil, savodli, qayta bayon etishdan iboratdir.

Bayonning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bayon o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, grammatikani to'g'ri qo'llashga o'rgatadi. Matn tuzish, fikrni mantiqiy va izchil ifodalash, mustaqil fikrlash va tahlil qilish malakalarini shakllantiradi. O'quvchilarni reja tuzish, asosiy fikrni ajratish, tahlil qilish va umumlashtirishga o'rgatadi. Til boyligini oshirib, adabiy nutqni rivojlantiradi, nutq madaniyatini shakllantiradi.

Bayon mashqlari orqali o'quvchilarda estetik did, badiiy tafakkur va axloqiy tushunchalar shakllanadi. O'z fikrini erkin va madaniyatli ifoda etishga o'rgatadi, bu esa hurmat, sabr-toqat, o'zaro tinglash kabi ijtimoiy fazilatlarni rivojlantiradi. Vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy-ma'naviy g'oyalarni singdirishda bayon samarali vositadir. Ijodiy bayon turlarida o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini ifodalab, shaxsiy dunyoqarash va axloqiy qadriyatlarini namoyon etadi.

Bayon ta'limda nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxs tarbiyasini shakllantiruvchi, o'quvchini fikrli, madaniyatli va ijodiy inson sifatida kamol toptiruvchi muhim metodik vosita hisoblanadi.

O'qish darslarida asosan og'zaki qayta hikoyalash mashq qilinsa, ona tili darslarida u ko'proq yozma tarzda o'tkaziladi. Bayon o'qib berilgan namunaviy matn mazmunini ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozma qayta hikoyalashdir. O'qish darslarida matn ustida ishlash, o'qilgan matn yuzasidan savollarga javob berish, reja tuzish va u asosida og'zaki qayta hikoyalash bolalarni bayon yozishga tayyorlaydi. Qayta hikoyalashning turlari xilma xildir. Har qanday qayta hikoya qilingan matn yuzasidan bayon yozish mumkin, ammo bayon yozish og'zaki qayta hikoyalashga nisbatan qiyin va murakkab faoliyatdir.

Ta'lim jarayonida bayonning ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:



- Nutqiy kompetensiyani rivojlantiradi. Bayon mashqlari orqali o'quvchilar til boyligini oshiradi, so'z va iboralardan to'g'ri foydalanishni o'rganadi.

- Fikrni izchil ifoda qilishga o'rgatadi. O'quvchilar matnni tahlil qiladi, asosiy fikrni ajratadi, reja asosida bayon qiladi.

- Ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Ayniqsa, ijodiy bayon mashqlari o'quvchilarni mustaqil xulosa chiqarish va muammoli vaziyatga ijodiy yondashishga o'rgatadi.

- Eshituvi va tushunishi cheklangan o'quvchilar bilan samarali ishlash imkonini beradi. Bayon mashqlari bu toifadagi o'quvchilarning ifoda va muloqot qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun qulay usuldir.

- Tilga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Bayon topshiriqlari orqali darslar qiziqarli va hayotiy misollar bilan boyitiladi, bu esa o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Ona tili fanining asosiy maqsadlaridan biri o'quvchini muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini mustaqil ifoda eta oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Bu borada bayon eng asosiy vositalardan biri sifatida xizmat qiladi. Xususan, maktab ta'limining har bir bosqichida boshlang'ich sinflardan tortib, yuqori sinflargacha bayon bilan ishlash o'quvchining nutqiy va tafakkuriy o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bayon ikki turga bo'linadi: tekshiruv bayoni, va ijodiy bayon. Tekshiruv bayoni ona tili izchil kurslarining ma'lum bo'limlari o'tib bo'lganidan keyin o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bunday bayonda o'quvchi matn mazmunini yozma ravishda qayta bayon etadi. Bayonning bu turi o'quvchining ona tili darslarida o'rgangan bilimlarning amalda qo'llay olish malakasi tekshiriladi. Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan tekshiruv bayonidan farq qiladi. Bunda o'quvchi matnga tasvur unsurlarini qo'shib, o'qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozadi. Ijodiy bayonning quyidagi turlari bor:

1. Shaxsini o'zgartirib yozish.

2. Tasvir elementlarini kiritib bayon yozish.

3. Boshlab berish yo'li bilan bayon yozish. Bunday ish turi o'quvchilarni insho yozishga tayyorlaydi, matndagi ijobiy munosabatni rivojlantiradi. Bayon tanlashda o'qituvchi quyidagi talablarga amal qiladi:

1. Bayon turi o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab belgilanadi.

2. Matn mazmuni o'quvchilar uchun mos bo'lishi shart.

3. Bayon ustida ishlash o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga qaratilgan mashg'ulotlarning boshqa turi-insho, qayta hikoyalash, ijodiy topshiriqlar bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim. Shunda dastur



talablarini amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulotning samaradorligi yana oshadi. Bayon yozish jarayonida o'quvchilar asarning mavzusi, mazmuni hamda asosiy g'oyasini chuqur tushunib oladilar. Bu esa nutq malakasini takomillashtirishga yordam beradi. O'quvchilar grammatika va imlo yuzasidan olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar, ularning nutqida yangi so'z va iboralar paydo bo'ladi, materialni mustaqil va izchil bayon etish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shu jihatdan bayon o'quvchilarda yozma nutq malakasini hosil qilishda muhim o'rin tutadilar.

Xulosa. Yuqorida bayonning til ta'limi jarayonidagi o'rni va ahamiyati keng yoritildi. Bayon ona tili darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, fikrni izchil va mantiqiy ifodalash, mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishda muhim metodik vosita ekanligi asoslab berildi.

Shuningdek, bayonning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlari ochib berildi. U nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarda estetik did, axloqiy fazilatlar, milliy qadriyatlarga hurmat va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bayon maktab ta'limining barcha bosqichlarida o'quvchini fikrini erkin, to'g'ri va ravon ifodalay oladigan, ijodkor va madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.G'ulomov "Ona tili o'qitish metodikasi" Darslik, Fan va texnologiya nashriyoti Toshkent 2012 y 380 b;
2. R.X.Raipovna "Ona tili o'qitish metodikasi" O'quv qo'llanma, Fan va ta'lim nashriyoti Buxoro 2022 y 144 b;
3. O.Madayev, A.Sobirov Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant Metodik qo'llanma Turon zamin ziyo 2017 y, 120 b;
4. R.Muslixiddinova Bayonlar to'plami Uslubiy ko'rsatma Navoiy 2022 y 61 b;
3. N.Jo'rayeva "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari" Maqola, ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-118-121
4. N.Nazarqulovna "Boshlang'ich ta'limda insho va bayon ijodiy ishi" Maqola, ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
5. https://tsuull.uz/sites/default/files/yozma_ish_turlari_insho_spusk_a.navoiy_institu.pdf
6. <https://ru.scribd.com/document/739791846/Bayonlar-toplami-2>